

# UZBEKISTAN LAW REVIEW



---

ISSUE 2  
2025

**ЎЗБЕКИСТОН ҚОNUНЧИЛИГИ  
ТАҲЛИЛИ**

**UZBEKISTAN LAW REVIEW**

**ОБЗОР ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА  
УЗБЕКИСТАНА**

**ИЛМИЙ  
ТАҲЛИЛИЙ  
ЖУРНАЛ**

**SCIENTIFIC  
ANALYTICAL  
JOURNAL**

**НАУЧНО  
АНАЛИТИЧЕСКИЙ  
ЖУРНАЛ**

---

---

**2025**  
**№2**

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ****БОШ МУҲАРРИР:**

**Гулямов Сайд Саидахаррович** – юридик фанлари доктори, профессор.

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ АЪЗОЛАРИ:**

**Рустамбеков Исламбек Рустамбекович** – ю.ф.д., профессор.

**Хўжаев Шоҳжакон Акмалжон ўғли** – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори.

**Оқғолов Омонбой** – ю.ф.д., профессор.

**Эргашев Восит Ёкубович** – ю.ф.н., профессор.

**Махкамов Отабек Мухтарович** – ю.ф.д.

**Суюнова Дилбар Жолдасбаева** – ю.ф.д., доц.

**Мусаев Бекзод Турсунбоевич** – ю.ф.д., доц.

**Беков Иҳтиёр** – ю.ф.д., проф.

**Бозоров Сардор Соҳибжонович** – ю.ф.д., проф. в.б.

**Хазратқулов Одилбек Турсунович** – юридик фанлари номзоди, доцент.

**Самарходжаев Ботир Билилович** – ю.ф.д., профессор.

**Ходжаев Бахшилло Камалович** – ю.ф.д., профессор.

**Нарзиев Отабек Саъдиевич** – ю.ф.д., проф. в.б.

**Жолдасова Шахноза Батировна** – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори.

Маълумот олиш учун куйидагиларга мурожаат этиш сўралади:

**Гулямов Сайд Саидахаррович,**  
**Рустамбеков Исламбек Рустамбекович**  
 ТДЮУ, Халқаро хусусий хуқуқ кафедраси,  
 Ўзбекистон Республикаси, Тошкент ш., 100047,  
 Сайилгоҳ кўчаси, 35. Тел: 233-66-36

"Ўзбекистон қонунчилиги таҳлили"нинг электрон нусхаси Интернетдаги [www.library-tsul.uz](http://www.library-tsul.uz) ёки [www.lawreview.uz](http://www.lawreview.uz) сайтида жойлаштирилган.

**Журнал 2013 йилдан Ўзбекистон Республикаси  
 Вазирлар Махкамасининг Олий Аттестация  
 комиссияси журнallари рўйхатига киритилган.**

Ушбу журналда баён этилган натижалар, хулосалар, талқинлар уларнинг муаллифларига тегишли бўлиб, Ўзбекистон Республикаси ёки Тошкент давлат юридик университети сиёсати ёки фикрини акс эттirmайди.

2025 йилда нашр этилди.

Муаллифлик хуқуқлари Тошкент давлат юридик университетига тегишли. Барча хуқуклар химояланган. Журнал материалларидан фойдаланиш, тарқатиш ва кўпайтириш Тошкент давлат юридик университети руҳсати билан амалга оширилади. Ушбу масалалар бўйича Тошкент давлат юридик университетига муроҳаат этилади. Ўзбекистон Республикаси, Тошкент ш., 100047, Сайилгоҳ кўчаси, 35.

ISSN 2181-8118

Масъул котиб: **И. Рустамбеков**

Нашриёт мухаррири: **Н. Ниязова**

Техник мухаррир: **Д. Козимов**

Лицензия № 02-0074

Босишга руҳсат этилди – 28.06.2025

Нашриёт ҳисоб табоғи – 5

«IMPRESS MEDIA» босмахонасида босилди

Адади – 100 нусха.

**ИЛМИЙ-ТАҲЛИЛИЙ  
 ЖУРНАЛ**

**2/2025**

**Qurbanov Jahongir Abdimutalliyevich**

Toshkent davlat yuridik universiteti  
Davlat va huquq nazariyasi kafedrasini  
o'qituvchisi

## O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI PREZİDENT FARMOYISHINING HUQUQIY TABİATI

**Annotatsiya.** Maqlada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoyishlarining huquqiy tabiatini va ijtimoiy hayotdagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda davlat rahbari tomonidan qabul qilinadigan hujjatlar turlari, ularning normativ va individual-huquqiy xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Farmoyishlarning farmon va qarorlardan farqi, ularning huquqni qo'llash aktlari sifatidagi ahamiyati olib beriladi. Kadrlar siyosati, moliyaviy va tashkiliy masalalarda farmoyishlarning qo'llanilishi tahlil etiladi. Maqlada farmoyishlarning normativ-huquqiy hujjat sifatida tan olinishi bo'yicha mavjud munozaralar ko'rib chiqiladi. Muallif farmoyishlarning huquqiy maqomini aniqroq belgilash, ularning ochiqlik va shaffofligini ta'minlash zarurligi haqida xulosa qiladi.

**Kalit so'zlar:** farmoyish, prezident hujjatlari, huquqni qo'llash, individual-huquqiy hujjat, normativ-huquqiy hujjat, kadrlar siyosati, huquqiy maqom, shaffoflik, konstitutsiyaviy huquq

**Аннотация.** В статье анализируется правовая природа и место президентских фармойишей Республики Узбекистан в общественной жизни. Исследование рассматривает виды документов, принимаемых главой государства, их нормативные и индивидуально-правовые характеристики. Раскрывается отличие фармойишней от указов и постановлений, их значение как актов применения права. Анализируется применение фармойишней в кадровой политике, финансовых и организационных вопросах. В статье рассматриваются существующие дискуссии о признании фармойишней нормативно-правовыми документами. Автор заключает о необходимости более точного определения правового статуса фармойишней, обеспечения их открытости и прозрачности в правовой системе государства.

**Ключевые слова:** фармойиш, президентские документы, применение права, индивидуально-правовой акт, нормативно-правовой акт, кадровая политика, правовой статус, прозрачность, конституционное право

**Abstract.** The article analyzes the legal nature and place of presidential farmoyishes of the Republic of Uzbekistan in social life. The research examines the types of documents adopted by the head of state, their normative and individual-legal characteristics. The difference between farmoyishes from decrees and resolutions, their significance as acts of law application is revealed. The application of farmoyishes in personnel policy, financial and organizational matters is analyzed.

The article discusses existing debates about recognizing farmoyishes as normative legal documents. The author concludes about the necessity of more precise definition of the legal status of farmoyishes, ensuring their openness and transparency in the state's legal system. The study emphasizes the need for legislative improvements to clarify the legal framework governing presidential farmoyishes.

**Keywords:** farmoyish, presidential documents, law application, individual legal act, normative legal act, personnel policy, legal status, transparency, constitutional law

### Kirish

Biz mamlakatimizni eng oliv mansabdor shaxsi tomonidan qabul qilinadigan hujjatlar borasida fikr yuritar ekanmiz, bunda biz huquq manbasi sifatida normativ-huquqiy hujjatlarni ko'z oldimizga keltiramiz. Xo'sh mamlakat prezidentning hujjatlari hammasi normativ yoxud rasmiy tusga egami. Prezidentning Farmon, qaror, farmoyish, taqdimmoma, murojaatnomalarini bari Prezident hujjatlaridir.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoyishlari odatda individual-huquqiy hujjatlar hisoblanadi. Ular tashkiliy, kadrlar, moliyaviy va boshqa amaliy masalalarni hal etishga xizmat qiladi. Shuningdek, ayrim hollarda farmoyishlar normativ tusga ega bo'lishi mumkin, lekin bu ularning asosiy huquqiy xususiyati emas.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoyishlari farmon va qarorlardan yuridik kuchi jihatidan past turadi, ammo ular davlat rahbarining bevosita ijo hokimiyyati ustidan nazoratini amalga oshirish vositasi sifatida muhim rol o'ynaydi. Amaliyotda ularning qamrovi kengayib bormoqda, ayniqsa iqtisodiy va moliyaviy boshqaruva sohalarida.

Davlat hokimiyyati tizimida hokimiyat organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini ta'minlovchi sifatida davlat boshlig'i - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlarini shartli ravishda normativ tusga ega bo'lgan va normativ tusga ega bo'lmagan hujjatlarni ijtimoiy hayotdagi o'rni va uning huquqiy tabiatini masalasida ilmiy maqola va ommabop gazetalarda yozib kelmoqdamiz.

Eng avvalo, davlat rahbarining har bir hujjati nazariy jihatdan huquq ijodkorligining mahsuli hisoblanadi. Shuningdek, huquq ijodkorligi pirovardida qabul qilinadigan huquq harakatlanishining mahsulidir. Tom ma'noda esa davlat rahbari tomonidan qonunchilikka binoan qabul qilgan hujjatlar o'z navbatida huquqni qo'llash hujjatlari hamdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda davlat rahbari tomonidan qonunchilik hujjati sifatida, shuningdek, amaldagi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonunning 12-moddasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari asosida hamda ularni ijo etish uchun farmonlar va qarolar tarzida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilishi bel-

gilangan. Bundan tashqari, Asosiy qomusimizni 110-moddasida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Konstitutsiyaga va qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo'lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi deb belgilab qo'yilgan .

Davlat rahbari tomonidan mamlakatda o'z vakolatlari doirasida yuridik jihatdan rasmiy yoki norasmiy tusga ega hujjalarni qabul qilishi va uni hayotga tadbiq qilishi bu qo'yilgan masalalarni eng avvalo yuridik rasmiylashtirilishiui muhim belgisidir. Ijtimoiy-iqtisodiy sohalani rivojlantirishda faqatgina og'zaki ko'rsatmalar bilan erishish bu huquqiy davlatchilikka ziyon yetkazilishiда muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shundan kelib chiqib, davlat rahbari ijtimoiy sohani faqatgina normative hujjat bilan emas, balki turli xil kuchga (tashkiliy, turli xil masaladagi, bir martalik, ma'muriy xususiyatdagi) ega bo'lgan norasmiy hujjatlar (taqdimmoma, murojaatnoma, bayonnoma)ni ham qabul qilishi mumkinligini ko'rish mumkin. Masalan, diplomatik hamda boshqa vakolatxonalarining rahbarlarini tayinlash uchun nomzodlarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdim etishi, Senat Raisi lavozimiga saylash uchun nomzodni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdim etishi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi tarkiblariga nomzodlarni, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining raisi, respublika korrupsiyaga qarshi kurashish organining rahbari va respublika monopoliyaga qarshi organining rahbari lavozimlariga nomzodlarni taqdim etishi (taqdimmoma), O'zbekiston Respublikasi xalqiga hamda Oliy Majlisiga mamlakat ichki va tashqi siyosatini amalga oshirishning eng muhim masalalari yuzasidan murojaat qilishi (murojaatnoma), kimyo-sanoat, qishloq-xo'jaligi va boshqa ustuvor masalalarni video selektor, hududlarda amalga oshirilayotgan islohotlar bilan tanishish va tashkiliy yig'ilishlarda imzolanadigan prezident boshchiligidagi yig'ilish bayonomalari shular jumlasidandir. Bu yerda bu kabi hujjalarga ajratishda ularning tashkiliy faoliyat shakliga ko'ra mezonlarga ajratilishi muhim omildir. Chunki, davlat rahbarining prezident sifatida huquqni qo'llash hujjalarni nafaqat qabul qilishi, balki boshqa amaldagi ijtimoiy hayotning tuli xil masalalarini huquqiy jihatdan tartibga solishga qaratilgan munosabatlarni ham aks etuvchi hujjalari ham prezident topshirig'i sifatida eng oliy majburiyatni aks ettirmoqda.

Biz yuqorida hujjalarni ichida Prezident farmoyishning huquqiy tabiatini va ijtimoiy sohada qo'llanilishi - amaliyotdagi o'mi haqida fikr yuritishni ilmiy maqolani bosh maqsadi qilganmiz. Shuningdek, ushbu ilmiy maqolada, bugungi Prezident farmoyishini huquqiy tabiatini ilmiy adabiyotlarda yoritiganlik masalasini tahlil qilishimiz - bu ilmiy ishimizning bosh obyekti hisoblanishini unutmasligimiz ham kerak.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi -tezkor va boshqa joriy masalalar bo'yicha qabul qilinadigan huquqni amalga oshirishning maxsus shakli

bo'lgan huquqni qo'llash hujjatidir.

Ma'lumki, ayni vaqtida O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasida mavjud qonunchilik hujjalari 30.000dan oshadi . Ushbu qonunchilik bazasini tahlil qilsangiz, 1994-yildan to 2024-yilga qadar bo'lgan davrda davlat rahbarining 99 ta huquqni qo'llash hujjati bo'lgan Farmoyishi qabul qiliniganligini yoki joylashtirilganligini ko'rish mumkin . O'zbekiston Respublikasi Prezidentining dastlabki Farmoyishi O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezident Islom Karimov tomonidan 1994-yil 5-martda qabul qilinigan F-358-sonli "Nazorat inspeksiysi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi (hujjat matni rus tilida berilgan) Farmoyishi bo'lsa , oxirgisi esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2024-yil 17-oktabrda qabul qilingan F-53-sonli "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi Farmoyishidir .

Bir so'z bilan aytganda, biz tahlil qilayapgan davlat rahbarining qabul qiladigan barcha turdag'i hujjalarni ilmiy-nazariy jihatdan normativ-huquqiy (farmon), huquqni qo'llash (farmoyishi) va rasmiy hujjalarni (qaror) deb aystsak bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan chiqariladigan va odatda tashkiliy, kadrlar yoki operativ masalalardagi hujjalarni esa tartibga soluvchi hujjatdir(farmon, qaror va farmoyish), deb huquqiy baholasak ham bo'ladi. Huquq ijodkorligi sifatida esa Prezident farmoyishlarini aniq bir shaxs yoki holatga qaratilganligini hisobga olib, ko'pincha individual-huquqiy hujjalarga ajratsak ham bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoyishlarini o'ziga xosligi shundaki, unda asosan individual, ayrim holda normativ elementlarni ko'rish mumkin. Masalan, kadrlar siyosatiga oid masalalarda, tayinlash va lavozimdan ozod qilishda (masalan, vazirlar, elchilar), moliyaviy masalalarda (jamg'armalardan mablag' ajratish), tashkiliy masalalardan(yangi organlar tuzish yoki faoliyatini to'xtatish). Demak, Farmoyishlar amalda O'zbekiston Respublikasi Prezidentning ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy sohalardagi tezkor boshqaruv vositasini sifatida xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezident qabul qiladigan, huquqni qo'llash akti hisoblangan Farmoyishlar normativ-huquqiy hujjat sifatida qaralishi bo'yicha muayyan bahsmunozaralar mavjud. Ayrim farmoyishlar, agar ular umumiyo doiradagi shaxslar yoki hodisalarga nisbatan qaratilgan bo'lsa, normativ tusga ega bo'lishi mumkin. Biroq amaldagi qonunchilikda ularning ko'pchiligi individual-huquqiy deb baholanadi.

Boshqa tomonidan, barcha farmoyishlarning www.lex.uz da ochiq e'lon qilinmasligi, ularning rasmiy huquqiy manbalarda to'liq mavjud emasligi huquqiy anqlik va shaffoflik tamoyillariga zid bo'lishi mumkin.

Shuningdek, amaliy jihatdan farmoyish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining muhim boshqaruv hujjati sifatida ham qarash mumkin, chunki u asosan individual-huquqiy tabiatga ega. Farmoyishlarning huquqiy maqomini yanada aniqlashtirish, normativlik mezonlarini belgilash va

уларни роҳнома манбаларда то'лиқ е'лон qилиш юки huquq shakli sifatida normativ-huquqiy hujjatlar tizimida takomil lashtirish zarur.

Demak, farmoyish — O'zbekiston Respublikasi Prezident tomonidan chiqariladigan, asosan, tashkiliy, operativ va joriy masalalarni hal etishga qaratilgan huquqni qo'llash hujjati sifatida quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

—farmoyishlar ko'pincha individual-huquqiy hujjat hisoblanadi, ya'ni, ular aniq bir shaxs yoki tashkilotga qaratilgan bo'ladi, ammo ayrim hollarda normativ belgilarni ham o'z ichiga olishi mumkin.

—Amaliyotda farmoyishlarning qo'llanilishini hisobga olsak, bu ko'pncha kadrlar siyosati bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, Prezident farmoyishlari orqali davlat xizmatchilarini lavozimga tayinlanadi yoki lavozimidan ozod etiladi.

—farmoyishlar orqali muhim moliyaviy masalalar ham xal etib kelinmoqda. Masalan, maxsus jamg'armalardan mablag' ajratish, yordam berish farmoyish orqali amalga oshiriladi.

—farmoyishlar orqali tashkiliy-texnik masalalar ham xal etilmoqda. Bunga tashkilotlar faoliyatini yo'lga qo'yish yoki tugatish bo'yicha topshiriqlar farmoyish orqali rasmiylashtiriladi.

Hozirgi kunda ijtimoiy sohada prezident hujjati bilan bog'liq sud ishlari ko'payganini eshitaypmiz, unda aynan farmoyishning normativ-huquqiy tusga egaligi masalasi ko'tarilmoqda. Ba'zi mutaxassislar (advokat, huquqshunos va boshqalar) farmoyishni normativ-huquqiy hujjat sifatida baholashmoqda, asos Asosiy qomus. Lekin, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi farmoyishlar asosan normativ bo'limagan (individual-huquqiy) hujjatlar sifatida qaraladi.

Aslini olganda ham farmoyish – bu Prezidentning huquqiy hujjatlar tizimidagi muhim, biroq nisbatan tor ko'lamlı vositasidir.

Huquqiy tizimda farmoyishlarning huquqiy maqomini aniq belgilash, ularning normativ yoki notekis hujjat sifatidagi chegaralarini mustahkamlash zarur.

Farmoyishlarning ochiq e'lon qilinishi va yuridik izohlar bilan ta'minlanishi huquqiy aniqlikni oshiradi. Shuning uchun, normativ huquqiy hujjatlar tasnifida farmoyishlarning roli bo'yicha qonunchilikda izchil yondashuv zarur. Farmoyishlarning normativ yoki individual hujjat sifatida tasnifini qonunchilikda aniq belgilash, ommaviy ahamiyatga ega farmoyishlarni rasmiy manbalarda muntazam e'lon qilish tizimini yaratish, farmoyishlarning huquqiy oqibatlarini aniqlovchi sharh va izohlarni ishlab chiqish bugunning eng muhim siyosiy masalasidir.

Shuning uchun bu tafovutni bartaraf etish va Prezident farmoyishlari atrofidagi huquqiy noaniqliklarni yo'qotish uchun "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunga qo'shimcha yoki o'zgartirish kiritish lozim. Bu o'zgarishlar Prezident hujjatlarining huquqiy kuchi, ularning odil sudlov ishlarida ochiqligi va normativlik darajasini aniqlashtirishda muhim qadam bo'ladi.

Umuman olganda, O'zbekistonda farmoyishlarning huquqiy maqomini aniqroq belgilash zarur, deb hisoblaymiz. Farmoyishlarning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash maqsadida ularni to'liq e'lon qilish tizimini mustahkamlash

lozim. Shuningdek, farmoyishlar bilan bog'liq sud amaliyoti va sharhlarni huquqshunoslik ta'ilim muassasalarida ham keng tatbiq etish maqsadga muvofiq.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuni.
3. The Constitution of the United States of Amerika with the Declaration of independence. Fall river press New-York.2012.
4. Sodikov A.Sh. Yuridik texnika. Darslik. -T.: TDYU nashriyoti. 2024. 400 bet.
5. Odilqoqiyev X. T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. -Toshkent. "Adolat". 2018. 528 bet. 377-bet.
6. <https://adolatmarkazi.uz/article?size=12&page=9>
7. <https://www.law.cornell.edu/executive-orders>
- 8.<https://www.law.cornell.edu/constitution-conan/article-2/section-1/clause-1/the-presidents-powers-and-youngstown-framework>